


“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston davlat
san’at va madaniyat instituti rektori v.v.b.



S.X.Madiyev

2026-yil “ 4 ” avgust

**TEXNIKUMLARNI MUVAFFAQIYATLI TAMOMLAGAN
BITIRUVCHILAR BILAN OLIY TA’LIM MUASSASASIGA O’QISHGA
KIRISH IMTIHONIDAGI SUHBAT SAVOLLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga quyidagi mavzular bo‘yicha bittadan, jami to‘rtta savol beriladi. Jami to‘plash mumkin bo‘lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi. Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a‘zolari tomonidan qo‘yilgan ballarning o‘rtachasi 67 ball va undan yuqori bo‘lganda talabgor suhbatdan o‘tgan hisoblanadi.

№	Mavzular	Maksimal ball
1.	Mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish bo‘yicha:	25
2.	Bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko‘rsatish) bo‘yicha:	25
3.	Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o‘qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas’uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari) bo‘yicha:	25
4.	Kutubxona-axborot faoliyati bakalavriat ta’lim yo‘nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligi bo‘yicha:	25
	Jami	100

**TALABGORNING BERILGAN SAVOLLARGA JAVOBLARINI
BAHOLASH MEZONLARI**

№	Baholash mezonlari	Ball
1.	Qo‘yilgan savolga talabgor tomonidan to‘liq va batafsil javob berilib, mavzu bo‘yicha ongli va tizimli bilimlar namoyon etilganda, mavzuning asosiy qoidalari ishonchli tarzda ochib berilganda. Javob aniq tuzilishga va mantiqiy ketma-ketlikka ega bo‘lib, tushunchalar, nazariyalar hamda hodisalarning mohiyati to‘g‘ri yoritilganda. Javob adabiy tilda, fan nuqtai nazaridan	22-25

	to'g'ri ifodalanganda. Tushunchalarni ifodalash yoki javob berish jarayonida talabgor tomonidan mustaqil ravishda tuzatilgan ayrim xatolarga yo'l qo'yilishi mumkin.	
2.	Savolga to'liq va batafsil javob berilib, mavzuning asosiy qoidalari aniq ochib berilganda. Javobda aniq tuzilma va mantiqiy ketma-ketlik saqlanganda, tushunchalar, nazariyalar va hodisalarning mohiyati to'g'ri yoritilganda. Javob adabiy tilda, fan nuqtai nazaridan ifodalanganda. Javobda Suhbat komissiyasi a'zolarining yo'naltiruvchi savollari yordamida talabgor tomonidan tuzatilgan ayrim kamchiliklar bo'lishi mumkin.	18-21
3.	Savolga yetarli darajada to'liq va batafsil javob berilmaganda, javobning mantiqiyligi va ketma-ketligi qisman buzilganda, tushunchalarni ochishda hamda atamalardan foydalanishda xatolarga yo'l qo'yilganda. Talabgor muhim va ikkilamchi xususiyatlarni, sabab-oqibat munosabatlarini mustaqil ravishda aniqlashda qiynalganda. Umumlashtirilgan bilimlarni konkretlashtirish va asosiy qoidalarni misollar bilan izohlashda Suhbat komissiyasi a'zolarining yordamiga ehtiyoj sezilganda. Talabgor nutqida tuzatishlar talab qilinganda.	14-17
4.	Talabgor savol mavzusi bo'yicha ta'riflarda sezilarli xatolarga yo'l qo'yib, tarqoq bilimlarni ifodalovchi to'liq bo'lmagan javob berganda. Tarqoq yoki mantiqsiz fikrlar keltirganda, savoldagi asosiy tushuncha, nazariya va hodisalarning o'zaro bog'liqligini anglamaganda. Xulosa chiqarish, fikrni konkretlashtirish hamda qoida va jarayonlarni asoslash yetarli bo'lmaganda. Nutq saviyasi past bo'lganda. Suhbat komissiyasi a'zolarining qo'shimcha va aniqlashtiruvchi savollariga berilgan javoblar ham qoniqarsiz bo'lganda.	0-13

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi o'rinbosari



S.T.Turatov